



SCIENTIFIC AND PRACTICAL IMPORTANCE OF RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES OF NUROTA-KOYTASH BOG

Elbek Sh. Kamolov

Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University named after A. Qadiri

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: elbekkamolov896@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Nurota-Koytash bog, Koytash mountains, Kumhavuz, tungsten-molybdenum, natural resource, scientific-practical, assessment.

Received: 31.03.23

Accepted: 02.04.23

Published: 04.04.23

Abstract: In this article, the possibilities of natural resources in the Nurota-Koytash basin are comprehensively studied, and proposals and recommendations for their use from a scientific and practical point of view are developed.

NUROTA-QO'YTOSH BOTIG'I TABIIY RESURSLARI OQILONA FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Elbek Sh. Kamolov

O'qituvchi

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

E-mail: elbekkamolov896@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nurota-Qo'ytosh botig'i, Qo'ytosh tog'lari, Qumhovuz, volfram-molibden, tabiiy resurs, ilmiy-amaliy, baholash.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Nurota-Qo'ytosh botig'idagi tabiiy resurs imkoniyatlari kompleks ravishda o'rganilib, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ БОЛОТА НУРОТА-КОЙТАШ

Эльбек Ш. Камолов

преподаватель

Джизакский Государственный Педагогический Университет имени А. Кадири

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Нурота-Койташское болото, Койташские горы, Кумхавуз, вольфрам-молибден, природные ресурсы, научно-практическая, оценка.	Аннотация:	В данной статье всесторонне изучены возможности природных ресурсов болота Нурота-Койтош, разработаны предложения и рекомендации для научного и практического использования.
------------------------	---	-------------------	---

KIRISH

Turkiston-Nurota okrugida antiklinal tog'lar orasida, o'ziga xos morfologik ko'rinishga ega bo'lgan sinklinal botiqlar joylashganligini ko'rishimiz mumkin. Bulardan eng kattalari Sangzor, Qo'ytosh va Nurota botiqlaridir. Nurota tizmasi janubdagi Nurota-Qo'ytosh botig'i orqali Baxiltog', Oqtog', Qaroqchitog' va G'o'bdin tog'lardan ajralib turadi.

Nurota-Qo'ytosh botig'i Nurota tizmasi va Sangzor vodiylari oralig'ida joylashgan tog' oralig'i botig'i hisoblanadi. Nurota-Qo'ytosh botig'ini tabiiy geografik ob'ekt sifatida turli hil qarashlar mavjud. Ba'zi bir ilmiy adabiyotlarda Sangzor-Qo'ytosh yoki Qo'shrobod-Qo'ytosh botig'i sifatida ham o'rganilganligini ko'rish mumkin. Lekin hududini ilmiy jihatdan o'rganish natijasida, Nurota-Qo'ytosh botig'i deb atash tabiiy geografik joylashuvi hamda geomorfologik xususiyatiga to'g'ri nomlanganligini ko'rsatmoqda.

ASOSIY QISM

Qo'ytosh tog'lari yoysimon ko'rinishda bo'lib, g'arbdan-sharqqa tomon cho'zilgan. Tog'ning uzunligi 65 km, eni 8-13 km, eng keng joyi 25 km ni tashkil qiladi. Eng baland joyi, tog'ning g'arbiy qismidagi To'ng'izlitog' bo'lib, 1905 m dan iboratdir. Qo'ytosh tog'larini janubiy-g'arbida Sangzor-Nurota, shimoliy-sharqida Mirzacho'l botiqlari o'rab olgan. Suvayirg'ich qismi va yonbag'irlarida tekislangan yuzalar keng tarqalgan. Qo'ytosh tog'i qumtosh, slanets, ohaktosh, marmar, granodiorit, granitdan iborat. Qatlamlarning yotish holatlari tektonik harakatlar natijasida kuchli o'zgargan. Marmarlashgan ohaktoshlar yuzaga chiqqan ayrim joylarda soy yonbag'irlari tik. Jinslar nurash oqibatida qo'y, tik devorli qal'a, turli xil jonivorlar qiyofasini eslatuvchi tabiat ajoyibotlarini hosil qilgan.

Nurota-Qo'ytosh botig'i aholisi 10 mingga yaqin bo'lib, turli xil millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Botiqning mahalliy aholisi o'zbeklar bo'lib, kamroq miqdorda bo'lsa ham Qo'ytosh va Marjanbuloq shaharchalarda rus, tatar, qirimtatar, tojik, qozoq, nemis, arman, turkman, koreys kabi millatlar vakillari istiqomat qiladi. Mahalliy aholi asosan, tog'-kon sanoati, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Nurota-Qo'ytosh botig'i foydali qazilmalarga boy hudud hisoblanadi. Mashhur geolog olimlar X. M.Abdullayev, N. Naimov, A.S.Ukolonski, A.G.Boboyev va boshqalar

respublikamizda joylashgan foydali qazilmalarning joylashish qonuniyatlarini muvofaqqiyat bilan ochib berdilar va Qo'ytosh atrofida volfram va molibden kabi foydali qazilmalar borligini aniqladilar. Qo'ytosh tog'i atrofining geologiyasi ham juda boy. Qo'ytosh hududini geologik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, dastlab Qo'ytosh atrofining geologik xaritasi 1924-1925-yillarda aniqlab qog'ozga tushurilgan. 1941-yilning 24-martida "Rangli metallar" xalq qo'mitasi №205 qarori bilan O'zbekiston "Galavzolota" boshqarmasiga topshirildi. Qo'ytosh koni 1943-yilning iyun oyida ishga tushurilgan bo'lib, muhim ahamiyatga ega xomashyo ishlab chiqarish mamlakatda juda zarur bo'lgan. 1936-yildan boshlab konda artellar ish o'rniga qarab tashkil etilgan. "Qizil oktabr", "Yo'ldosh Ohunboboyev", "Luch", "To'qqizinchi may" artellarida ruda yuvilgan va volfram konsentrati ajratib olingan. Qo'ytosh koni maydonida turli xil metallarning (volfram, molibden, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, qalay, kadmiy) va nometall ashyolarning (granit, rogovik, kumush kabilar) mavjudligi aniqlangan.

Qo'ytosh tog'ining janubi-sharq tomonida Qumhovuz joylashgan. Relyefi bir muncha murakkab. Qumhovuzda mavsumiy shamollar esadi. Qumdan chang ko'tarilganda 10 km uzoqlikgacha uchib boradi. 300 m eniligidagi balandlikda 100-150 m gacha ko'tariladi. Bir yilda o'rtacha hisobda 3-4 marta qum ko'tariladi va yon-atrofdagi qishloqlar aholisi va tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. Qumhovuzning shimoliy-sharq tomoni tog'li hudud, sharqiy tomoni adirlar joylashgan. Janubiy tomoni va g'arb tomonlari past qir adirlardan iborat. Qum qishloqlar aholisiga va tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qumhovuzda qishning qattiq kunlarida qor yog'ganda ham qor hududining barcha qismida bir xil turmaydi, qor tez eriydi va Qumhovuzning o'rtasida suv to'planadi. Qum dastlab tashlangan, Qumhovuz ustida suv bo'lgan. Keyinchalik suv yo'q bo'lib, qumga singan, ma'lum qismi bug'lanib ketgan. Yoz faslida qum tezda isiydi va shamol bo'lgan vaqtlari qum ko'tariladi. Bu hududda hayvonot dunyosiga boy emas, ma'lum bir sudralib yuruvchilar uchrab turadi. O'simlik dunyosi qisman bo'lib, yontoq, chingil va jiyda daraxtlari bor. Qum inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina qumning salbiy tomonigina bo'lib qolmasdan, bir qator ijobiy tomonlari ham bor. Bu qumning tarkibi kamyob va qimmatbaho elementlardan iborat. Qumning tarkibiy qismi 18 xil elementdan iborat bo'lib, quyidagi jadvalda ular haqida ma'lumot keltirilgan. Bunday moddalar sanoat uchun juda muhim hisoblanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Qumhovuzdagi qumlarning kimyoviy tarkibi

T/r	Moddalar	Kimyoviy nomi	Foizlarda hisobida
1	Kremniy (4)oksidi	SiO	41-48-%
2	Kaliy oksidi	K ₂ O	0.5-0.9- %
3	Natriy oksidi	Na ₂ O	0.9-1.4-%
4	Kalsiy oksidi	CaO	19-22-%
5	Magniy oksidi	MgO	0.8-1.2-%
6	Umumiy oksidi	C	2.0-3.3-%

7	Alyuminiy (3) oksidi	Al ₂ O ₃	3.7-5.0-%
8	Temir saqllovchilar	Fe ₂ O ₃	8-12-%
9	Oltinugurt aralashmalari	S	0.3-1.0-%
10	Fosfor (4) oksidi	P ₂ O ₅	0.05-0.07-%
11	Titan(4)oksid	TiO	0.1-%
12	Marganets	Mn	0.8-1.3-%
13	Mis	Cu	0.01-p,0.2-%
14	Rux	Zn	0.02-0.03-%
15	Qo'rg'oshin	Pb	0.08-0.013-%
16	Vismut	Bi	0.005-0.009-%
17	Astat	As	0.01-0.1-%
18	Volfram(6)oksid	WO ₃	0.01-0.1-%

Nurota-Qoytosh botig'ni o'rab olgan tog'larda dorivor o'simliklar juda ko'p bo'lganligi bois, qadimdan mahalliy aholi tibbiyotga ham qiziqib kelishgan. Bu yerdagi har bir o'simlik juda ko'p kasalliklarga da'vo bo'lib, tibbiyotda ishlatiladi. Botiq havosi toza va musaffo bo'lib, yer osti suvlariga ham boydir. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Qo'ytoshdagi yer osti suvi tarkibida juda ko'p mineral moddalar borligi aniqlangan.

Nurota-Qo'ytosh botig'i turli-tuman o'simlik va hayvonot dunyosiga boy hisoblanadi. Botiqni o'rab olgan Qo'ytosh tog'larida lolaning uch turi hamda dorivor o'simliklardan: andiz, kiyik o'ti, oq dori, darmon shuvoqasal yoki novvotga qo'shib qaynatib quvvatni tiklashda, oshqozon yallig'lanishi, qon ketishi, yaralarni davolashda, kovildan bavoailni davolashda, ravoch, qoqi, turli zambrug'lar, qo'ziqorin, yalpizdan vitaminlar sifatida foydalanmoqdalar. Shunindek, tog'larda turli xil mevali va manzarali daraxtlar, butalar va o'simliklar olamiga boydir.

Hayvonlardan yovvoyi cho'chqa, tulki, jayra, bo'ri, arxarlar bor. Tog'ning baland cho'qqilarida qushlardan kalxat, qirg'iy, undan ozgina pastroqda bulbul, kakliklar, so'fito'rg'aylar bo'lgan. Qoraqush cho'qqisida o'tirgan viqorli burgutlarning salobati, Xon tog'i cho'qqisida mudarayotgan arxarning mag'rur turishini ko'rish mumkin. Lekin hozirgi kunga kelib, bu turdagi hayvonlarning ko'pchiligi yo'qolib ketish arafasida.

Qo'ytosh tog'ining eng jozibador cho'qqilaridan biri Xon tog'i cho'qqisidir. Bu cho'qqi haqida mahalliy aholi tomonidan turli xil fikrlar bildiradi. Go'yo Bobur Mirzo Shayboniixonidan qochib, bir to'da askarlari bilan shu cho'qqida jon saqlagan emish. Balki, shu sabab Xon tog'i cho'qqisi deb atalgandir. Cho'qqidagi toshlarda qon rangiga o'xshash qizil rang bor.

XULOSA

Songi yillarda Nurota-Qo'ytosh botig'i tabiiy resurslariga antropagen omillarning ta'siri ortib bormoqda. Natijada, botiqda joylashgan Qo'ytosh va Marjanbuloq shaharchalari atrofidagi tog'-sanoati hududlarida geoeologik vaziyat salbiy tomonga o'zgarmoqda. Kelgusida, botiqdagi tabiiy resurslarning dinamik o'zgarishini aniqlash, baholash va prognozlash ishlarini amalga oshirish muhim aktual muammolarni yechishga yordam beradi. Shu boisdan botiqda tabiiy

resurslarni dala tadqiqotlari, ilmiy adabiyotlar va fond materallari tahlillari orqali kompleks ravishda o'rganib chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алибеков Л.А. Ўрта Осиё табиий географияси. 1-қисм. –Самарқанд, 2006.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996
3. Алимқулов Н.Р. Жиззах вилояти ландшафт-экологик шароитини ўрганишнинг асосий илмий натижалари. Ҳозирги зомон географияси; назария ва амалиёт. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари.-Тошкент: 2006.
4. Гўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент: “Фан ва технология”, 2014
5. Хакимов Қ., Гўдалов М. Жиззах вилояти географияси. – Жиззах: Сангзор, 2006.